

**TELEKOMMUNIKATSIYA TIZIMI KORXONALARIDA ELEKTRON
TIJORAT MASALALARI**

Xusanov Ulug‘bek Nishonovich - Mustaqil izlanuvchi

Annotasiya. Maqolada “Radioaloqa, radioeshittirish va televide niye markazi” davlat unitar korxonasi iqtisodiy hamkorlari to‘g‘risida ma’lumotlar bir tizimga keltirilgan. Elektron tijorat auditida o‘rganiladigan omillar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Axborot texnologiyalar, tahlil, ko‘rsatkichlar, moliyaviy hisobot, kommunikatsiya, radioaloqa, radioeshittirish, televide niya, iqtisodiy hamkorlar, elektron tijorat.

Abstract. In the article, information about the economic partners of the state unitary enterprise "Radiocommunication, broadcasting and television center" is presented in one system. The factors studied in e-commerce audit are analyzed.

Keywords. Information technology, analysis, indicators, financial reporting, communication, radio communication, broadcasting, television, economic partners, electronic commerce.

Абстрактный. В статье информация о хозяйственных партнерах государственного унитарного предприятия «Центр радиосвязи, вещания и телевидения» представлена в одной системе. Анализируются факторы, изучаемые в аудите электронной коммерции.

Ключевые слова. Информационные технологии, анализ, показатели, финансовая отчетность, связь, радиосвязь, радиовещание, телевидение, экономические партнеры, электронная коммерция.

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekiston telekommunikatsiya tizimida “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi” faoliyat ko‘rsatib, uning tarkibida 21 ta yirik sub’ektlar faoliyat ko‘rsatadi. Ularning aksariyat davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etilgan bo‘lib, ular davlat mulki hisoblanadi. Mazkur korxonalar Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 noyabrdagi 458-son qarori bilan tasdiqlangan “Telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni litsenziyalash to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi. Tadqiqot jarayonida asosan O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va “Radioaloqa, radioeshittirish va televide niye markazi” davlat unitar korxonasi(keyingi o‘rinlarda “RRTM” DUK)ning moliyaviy hisobot audit ma’lumotlari tahlil etildi. Ular faoliyati oxirgi besh yilda asosan “IMPULS AUDIT” auditorlik tashkiloti tomonidan majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilganligi ma’lum bo‘ldi.

Bugungi ilg‘or xorij tajribasidan ma’lumki, telekommunikatsiya tizimi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari barqaror ishlashi va rivojlanishini ta’minlovchi

asosiy tizim hisoblanadi. Bugungi jahon aloqa tarmoqlari umumiy foydalanish tarmog‘i, ajralgan holdagi tarmoq, texnologik tarmoqlar, maxsus aloqa tarmoqlari va boshqa elektromagnit tizimlari orqali ma’lumotlarni uzatuvchi tarmoqlarga ajralgan holda keng miqyosda taraqqiy etmoqda.

Ayniqsa bugungi kunda, telekommunikatsiya tarmoqlarida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlarining paydo bo‘lishi va xizmatlar soni hamda sifatining oshishi natijasida soha sub’ektlari o‘rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar takomillashishiga erishildi. Respublika amaliyotida elektron axborot almashinuv tizimi keng rivojlanib, elektron tijorat sohasi yoki zamonaviy interaktiv xizmatlar ko‘rsatish orqali raqamli iqtisodiyot kabi zamonaviy xizmatlar keng shakllandi. Yuqorida ijobiy jihatlar bilan birgalikda respublika telekommunikatsiya tizimiga ham bozor munosabatlarini joriy etilishi natijasida ular daromad va xarajatlarini shakllantirish, taqsimlash, ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish hamda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minalashda muammoli masalalar yuzaga keldi. Telekommunikatsiya tizimining bugungi muhim masalalaridan biri ular faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining ishonchliligini baholash masalasidir. Telekommunikatsiya tizimi sub’ektlari bugungi kunda xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sifatida faoliyat ko‘rsatayotganligi ham ular faoliyati amaldagi auditorlik qonunchiligi me’yorlariga ko‘ra majburiy auditorlik tekshiruvi ob’ektiga aylandi. Shuningdek, ular faoliyatining shafofligini ta’minalash va ular moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan foydalanuvchilar doirasining kengayganligi telekommunikatsiya tizimi korxonalarida auditorlik xizmatlarini joriy etishni dolzarb masalaga aylantirdi.

Xalqaro auditorlik amaliyotida firibgarlik(fraud), moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish (misrepresentation of financial statements) va xato (error) kabi atamalaridan keng foydalaniladi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston respublikasining auditga oid me’yoriy hujjatlari, foydalanilayotgan o‘quv adabiyotlari va amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda auditda firibgarlik, xato va moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish kabi atamalar mazmuni etarlicha yoritilmagan va atroflichcha o‘rganilmagan. Bundan ko‘rinadiki moliyaviy hisobot auditida firibgarlik va xato atamalari mohiyatini ochib berish, auditorlik tekshiruvi jarayonida moliyaviy hisobotda firibgarlik va xatolarni aniqlash, ular oqibatlarini baholash va ular bo‘yicha auditor fikrini shakllantirish masalalarini tadqiq etish dolzarb masalalardan sanaladi.

Тадқиқот методологияси.

Tadqiqot davomida umumlashtirish, guruhlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, statistika, istiqbolli prognozlash, tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan keng foydalanilgan.

Асосий қисм.

Bugungi ilg‘or xorij tajribasidan ma’lumki, telekommunikatsiya tizimi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari barqaror ishlashi va rivojlanishini ta’minlovchi asosiy tizim hisoblanadi. Bugungi jahon aloqa tarmoqlari umumiy foydalanish tarmog‘i, ajralgan holdagi tarmoq, texnologik tarmoqlar, maxsus aloqa tarmoqlari va boshqa elektromagnit tizimlari orqali ma’lumotlarni uzatuvchi tarmoqlarga ajralgan

holda keng miqyosda taraqqiy etmoqda.

Ayniqsa bugungi kunda, telekommunikatsiya tarmoqlarida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlarining paydo bo‘lishi va xizmatlar soni hamda sifatining oshishi natijasida soha sub’ektlari o‘rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar takomillashishiga erishildi. Respublika amaliyotida elektron axborot almashinuv tizimi keng rivojlanib, elektron tijorat sohasi yoki zamonaviy interaktiv xizmatlar ko‘rsatish orqali raqamli iqtisodiyot kabi zamonaviy xizmatlar keng shakllandi. Yuqoridagi ijobjiy jihatlar bilan birgalikda respublika telekommunikatsiya tizimiga ham bozor munosabatlarini joriy etilishi natijasida ular daromad va xarajatlarini shakllantirish, taqsimlash, ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish hamda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minalashda muammoli masalalar yuzaga keldi. Telekommunikatsiya tizimining bugungi muhim masalalaridan biri ular faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining ishonchlilagini baholash masalasıdir. Telekommunikatsiya tizimi sub’ektlari bugungi kunda xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sifatida faoliyat ko‘rsatayotganligi ham ular faoliyati amaldagi auditorlik qonunchiligi me’yorlariga ko‘ra majburiy auditorlik tekshiruvi ob’ektiga aylandi. Shuningdek, ular faoliyatining shafofligini ta’minalash va ular moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan foydalanuvchilar doirasining kengayganligi telekommunikatsiya tizimi korxonalarida auditorlik xizmatlarini joriy etishni dolzarb masalaga aylantirdi.

Xalqaro auditorlik amaliyotida firibgarlik(fraud), moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish (misrepresentation of financial statements) va xato (error) kabi atamalaridan keng foydalaniladi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston respublikasining auditga oid me’yoriy hujjatlari, foydalanilayotgan o‘quv adabiyotlari va amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda auditda firibgarlik, xato va moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish kabi atamalar mazmuni etarlicha yoritilmagan va atroflicha o‘rganilmagan. Bundan ko‘rinadiki moliyaviy hisobot auditida firibgarlik va xato atamalari mohiyatini ochib berish, auditorlik tekshiruvi jarayonida moliyaviy hisobotda firibgarlik va xatolarni aniqlash, ular oqibatlarini baholash va ular bo‘yicha auditor fikrini shakllantirish masalalarini tadqiq etish dolzarb masalalardan sanaladi.

Fikrimizcha eng avvalo, firibgarlik, xato va ular oqibatida shakllanadigan moliyaviy hisobotdagi buzib ko‘rsatish tushunchalari mazmuniga aniqlik kiritish, ular mazmuni o‘rtasidagi farq qiluvchi xususiyatlar mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy hisobot auditida firibgarlik deganda moliyaviy hisobotni atayin buzib ko‘rsatish harakatlarini anglatuvchi yuridik tushuncha tushunilsa, xato deganda esa moliyaviy hisobotdagi atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish harakatlari tushuniladi. Auditda firibgarlik yoki xato tushunchalari mazmuni o‘rtasidagi asosiy farqlovchi belgi bu ataylab (qasddan) yoki atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatish holati hisoblanadi. Demak auditda firibgarlikni aniqlash (fosh etish) xatoni aniqlash jarayoniga qaraganda muhimroq va murakkabroq hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatilishi - bu moliyaviy hisobotdagi firibgarlik yoki xatolar oqibatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi va foydalanuvchilarni noto‘g‘ri xulosa chiqarishi(baholashi)ga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar tushuniladi. Yuqoridagilar

bilan birgalikda auditorlik xizmati bilan ibrgalikda bugungi kunda “IT-audit” tushunchasi ham vujudga keldi. Mutaxassislarining fikricha “IT-audit – bu butun axborot tizimlari infratuzilmasini va uning alohida qismlarini o’rganish hamda ekspert baholash xizmatidir.

Tahlillar natijasida tadqiqot ob’ekti hisoblangan “RRTM” DUKning moliyaviy hisoboti ko’rsatkichlari bugungi kunda quyidagi jadvalda keltirilgan hamkorlar asosida shakllanganligi ma’lum bo’ldi(1-jadval):

1-jadval

“RRTM” DUK iqtisodiy hamkorlari to‘g‘risida ma’lumot¹

Nº	Hamkor tashkilotlar nomi
I.Teletranslyatsiya xizmatini ko‘rsatish faoliyati	
1	O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi
2	“Zo‘r” MChJ «Zo‘r TV» telekanali
3	Uzreport MChJ – “Uzreport” va “Futbol” telekanallari translyatsiyasi
4	“Edumedia corporation” MChJ – “Aqlvoy” telekanali
5	“Milliy Telekanal” MChJ – “Milliy” teleknali
6	“Ozod yurt to‘lqinlari” MChJ – “MY5” telekanali
7	“MASTER MEDIA PRODUCTION AND BROADCAST” MChJ - “Sevimli” telekanali
8	“UZDIGITAL TV” MCHJ - 42 ta chet el telekanallari translyatsiyasi xizmati
9	“Renessans” MChJ - “Renessans” telekanali
10	Viloyatlardagi 20 ta xususiy telekanallar
II.Texnik xizmat ko‘rsatish va ijara xizmati faoliyati	
1	“O‘zbektelekom” AJ - Uzmobile savdo belgisi
2	“UMS” MChJ – UMS savdo belgisi
3	“UNITEL” MChJ - Beeline savdo belgisi
4	“Coscom” MChJ – “Ucell” savdo belgisi
5	“Rubicon Wireless Communication” MChJ – “Perfectum” savdo belgisi
6	Milliy gvardiya, IIV, Mudofaa vazirligi, DXX, Bojxona qo‘mitasi va 100 ortiq korxonalar
III. Jismoni shaxslarga xizmat ko‘rsatish faoliyati	
1	Koinot restorani xizmatlari
2	Teleminoraga ekskursiya xizmati
IV.Xorijiy hamkorlar	
1	“SES” sun’iy yo‘ldosh xizmati bo‘yicha hamkor (Niderlandiya)
2	“RED TELECOM” radio dasturlarni tarqatish bo‘yicha hamkor (Kanada)

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat respublikamizda ham keng rivojlanmoqda. Elektron tijorat faoliyati respublikamizda 20 muddadan iborat 2015 yil 22 maydagi O'RQ-385 son “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3724-son qarori bilan tartibga solinadi. Mazkur Qonunning 3 muddasiga muvofiq mazkur faoliyatga “Axborot tizimlaridan foydalangan holda tuziladigan shartnomaga (bundan buyon matnda elektron tijoratdagi shartnomaga deb yuritiladi) muvofiq amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisi elektron tijoratdir”² deb ta’rif berilgan. Ushbu faoliyat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi tomonidan 2018 yilning 1 iyulidan e’tiboran elektron www.e-tijorat.uz internet-portali ishga tushirilib, elektron tijoratning mahalliy subyektlari haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan yagona elektron bank tashkil etilgan.

Ma'lumki, moliyaviy hisobot auditi jarayonida tekshirilayotgan sub'ektning nafaqat moliyaviy hisoboti balki, statistik hisobotlarini ham to‘g‘ri, to‘liq va o‘z muddatida statistika organiga taqdim etilganligi ham o‘rganiladi. Chunki statistik hisobot ma'lumotlarining aksariyati moliyaviy hisobot shakllaridagi ma'lumotlar asosida shakllanadi yoki aksincha va ikkala shakldagi hisobot ham korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyatining uzviy natijasi ko‘rsatkichlari asosida shakllanadi. Biroq amaliyotda ularni taqdim etish muddatlari va hisobot ma'lumotlarining shakllanishi bir-biriga mutanosib ravishda shakllanadi. Ma'lumki amaliyotda moliyaviy hisobotlar soliq organlariga my.soliq.uz sayti orqali statistik hisobotlar esa hisobot.stat.uz saytida yaratilgan maxsus platforma orqali taqdim etilmoqda. Ammo taqdim etiladigan statistik va moliyaviy hisobotlarga kiritiladigan ayrim ma'lumotlar o‘zaro o‘xshash mazmunda bo‘lib, ular ikki hisobot turining birida shakllantirilib, keyin ikkinchi turiga kiritiladi. Bizningcha mazkur hisobot turlaridagi ma'lumotlarni xo‘jalik yurituvchi sub'ektdan emas, balki platformalarga kiritilgan ma'lumotlar asosida ya’ni statistika boshqarmalari soliq boshqarmalari platformalaridagi ma'lumotlardan olishini yoki aksincha tartibda platformalarning o‘zaro axborot almashinuv integratsiyasini yaratish zarur deb hisoblaymiz. Buning natijasida xo‘jalik sub'ektlari hisob xodimlarining statistik va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish ishlari uchun vaqt va mehnat sarfini amalda kamaytirishga erishish mumkin.

Jumladan, respublikadagi ishlab chiqarish hajmi katta bo‘lgan va ko‘p miqdorlagi ishchi va xizmatchilar faoliyat ko‘rsatuvchi tashkilotlarda mehnat haqi hisoblash jarayoni oyning 10-15-sanasigacha davom etishi mumkin bo‘lgan sharoitda mehnat bo‘yicha statistik hisobotni moliyaviy hisobot oyining 6-sanasigacha taqdim etish imkonining cheklanishi yoki ish haqi hisoblash jarayoni yakuniga etkazilmagan hollarda korxona (tashkilot) faoliyati to‘g‘risidagi hisobotni oyning 5-sanasigacha taqdim etish imkonining yo‘qolishi kabi holatlar, qurilish tashkilotlari hisob-kitob bo‘yicha to‘lov hujjatini oyning 10-sanasigacha jo‘natishi mumkin bo‘lgan hollarda, korxonaning investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi hisobotini hisobot oyining 6-sanasigacha bo‘lgan muddatda taqdim etishning imkonsizligi kabi holatlar statistik va

² <https://lex.uz/ru/docs/2650293>

moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etishda turli nomuvofiqliklarni keltirib chiqarmoqda. Bizningcha, statistik va moliyaviy hisobotlarni tuzish va foydalanuvchilarga taqdim etish muddatları bo‘yicha yuqoridagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish maqsadida tegishli qonun hujjatlariga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Hozirgi paytda elektron tijorat xalqaro doirada VISA, MasterCard VISA, American Express va MasterCard Worldwide va Worldwide to‘lov tizimlaridan foydalanilayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston amaliyotida esa elektron tijorat WEBSUM, iPAY, PAYNET, WEBMONEY, IntellectMoney, Perfect Money, RBK Money va V-money kabi to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Elektron tijorat jarayoni xaridor va buyurtmachilar o‘rtasida vaqt va xarajatni tejash orqali istalgan joyda eng zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan biznes jarayonidir. O‘zbekistonda elektron tijorat muomalalari UzEx elektron birja tarmog‘ida tashkil etilgan onlaysavdo maydonchalari orqali amalga oshirish elektron tijoratning keng tarqalgan shakllaridan hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda elektron tijorat faoliyatini keng miqyosda rivojlantirish natijasida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yuqori darajada raqamlashtirish, yuqori tezlikdagi internet xizmatini yo‘lga qo‘yish va ushbu xizmatlarni amaliyotga joriy etish uchun qulay sharoitlarni yaratish imkoniyatlari shakllanadi. Jumladan yuqori tezlikdagi internet xizmatini ko‘rsatishda respublikamizda bugungi kunda Turon Telecom, Sarkor va Uzonline kabi eng yaxshi provayder-korxonalar shakllangan bo‘lsa, elektron tijoratning eng samarali turlari joriy etilishi natijasida bank to‘lovlarini masofaviy tarzda amalga oshirish, davlat xaridlari va korporativ xaridlarni elektron shakllarda amalga oshirish imkoniyatlari yaratildi va boshqalar.

O‘zbekiston amaliyotida elektron tijorat jarayonlarini amalga oshirish bilan shug‘ullanuvchi tijorat tashkilotlari mas’uliyati cheklangan jamiyat va aksiyadorlik jamiyatlari shaklida faoliyat olib borishi bois, ularning aksariyati bugungi kunda audit qonunchiliga ko‘ra majburiy va tashabbus tarzidagi auditorlik xizmatlaridan foydalanishmoqda. Yuqoridagilar bilan birgalikda elektron tijoratni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shartnomalar elektron hujjatga kiritiladigan alohida shartlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday holda elektron hujjatni qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan muddat davomida mazkur hujjatdan to‘liq foydalanish imkoniyatini ta’minlashi va qonunchilikda ko‘rsatilgan tartibda muddat yakunlanganidan so‘ng esa esa saqlanishini ta’minlashi talab etiladi.

Электрон тижорат аудитида ўрганиладиган масалалар хусусиятлари

Elektron tijorat bilan shug‘ullanuvchining elektron tijorat faoliyatini tartibga soluvchi standartlar, normalar va qoidalarga rioya etish шартларининг ўзига хослиги

Mahsulot(ish, xizmat) sotuvchisining to‘liq nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, ko‘rsatadigan xizmat turlari, mahsulot(ish, xizmat)larni sotish shartlari va uning baholari (tariflari) to‘g‘risidagi axborotlarni elektron tijorat qatnashchilariga yetkazish тартибининг ўзига хослиги

Elektron tijorat jarayonida foydalaniladigan elektron hujjatlar va tegishli ma’lumotlar mazmunini va tuzilgan shartnoma shartlariniнг o‘zgarmasligi

Elektron tijorat jarayonlarida hujjatlar va axborotlarni uchinchi shaxslarga tarqalib ketishini ta’minalash shartlariiga риоя этишининг мухимлиги

Elektron tijorat jarayonida foydalaniladigan hujjatlar mazmuni, elektron axborotlarni hamda elektron tijorat ishtirokchisining shaxsiy ma’lumotlarni asocsiz ravishda tarqalishini oldini olish зарурати

-rasm. Elektron tijorat auditida o‘rganiladigan masalalar xususiyatlari³

Bizningcha auditor, elektron tijorat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi sub’ekt faoliyatini auditorlik o‘rganishda mazkur faoliyatning quyidagi xususiyatlariga e’tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir(-rasm). Barcha korxonalar singari telekommunikatsiya tizimi korxonalari ham xo‘jalik yurituvchi sub’ekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar (moliya-kredit tashkilotlari, soliq inspeksiyalari, xaridor va buyurtmachilar, mol etkazib beruvchilar, banklar, statistika organlari, investorlar va h.k.) moliyaviy hisobot ishonchliliga kafolat mavjudliliga ehtiyoj sezishadi. Jumladan respublikamizda faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy hisobotlari amalda auditorlik tekshiruvidan o’tkazilsada moliyaviy hisobotni auditorlik tekshiruvidan o’tkazilganligini tasdiqlovchi biror belgi amalda qo‘yilmaydi. Respublikamizning amaldagi “auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining “Auditorlik xulosasi” nomli 39-moddasida “Auditorlik xulosasi raqamlangan, har bir sahifasi auditorlik tekshiruvini amalga oshirgan auditor (auditorlar) va auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan hamda unga auditorlik tashkilotining fikri qaysi moliyaviy hisobotga nisbatan ifodalangan bo‘lsa, o‘sha moliyaviy hisobot ilova qilingan bo‘lishi kerak”ligi ko‘rsatilgan. Biroq, fikrimizcha auditorlik xulosaga tekshirilgan moliyaviy hisobotni ilova qilinishi etarli emas deb hisoblaymiz. Chunki, ushbu ilova qilingan hisobotni boshqasi bilan o‘zgartirish yoki uni almashtirib qo‘yish imkoniyati saqlanib qoladi va o‘z manfaatini

³ Muallif tomonidan tayyorlangan

ustun qo‘ygan g‘irrom xo‘jalik yurituvchi sub’ekt bunday imkoniyatdan foydalanishiga qonunchilikda imkoniyat berilgan degan xulosa qilish mumkin. Shuningdek, O‘zbekiston amaliyotida ko‘pgina auditorlik tashkilotlari tekshirilgan moliyaviy hisobotni ilova qilmaslik holatlari yoki auditorlik tashkilotlari o‘rganilgan moliyaviy hisobotlarni tekshirilganligi to‘g‘risida muayyan belgi qo‘ymaslik holatlari ko‘p uchraydi.

Хуноса.

Bizningcha, yuqoridagi kabi holatlarga yo‘l qo‘yilmasligini ta’minalash maqsadida tekshirilgan sub’ektlarga auditorlik tashkiloti tomonidan beriladigan xulosalarda sub’ekt moliyaviy hisobotining har bir sahifasi auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida “tekshirildi” mazmunidagi “shtamp” qo‘yilishi lozimligini tavsiya etamiz. Bu esa o‘z navbatida moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni auditorlik tashkilotlari tomonidan ishonchliligi kafolatlangan moliyaviy hisobotdan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Amaldagi 320-sonli “Auditni rejalshtirish va bajarishda muhimlik» nomli auditning xalqaro standartiga muvofiq auditorlik tekshiruvi jarayonida moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlaridan muhimlik darajasini aniqlash maqsadlarida ham foydalanim, bunda muhimlik darajasining mutlaq va nisbiy qiymatlari moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari asosida hisoblanadi. Bizningcha muhimlik tushunchasi deganda tekshirilayotgan korxona moliyaviy hisobotining ishonchliligi to‘g‘risida xulosa yoki hisobot ma’lumotlari asosida qaror qabul qilishiga salbiy ta’sir etuvchi moliyaviy hisobotning eng yuqori qiymati tushuniladi. Amaliyotda muhimlik darajasi mutlaq va nisbiy qiymatlarda hisoblanib, ushbu ko‘rsatkich asosida auditor fikrining ishonchlilagini buzilish darajasi qiymat ifodasida baholanadi. Ya’ni muhimlik darajasi qiymati tekshiruvda auditor yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatoning yoki auditor tomonidan aniqlanmagan moliyaviy hisobot buzib ko‘rsatilishining eng yuqori darajasi(qiymat)dir. Mazkur qiymat auditorlik rejalshtirish yoki tekshiruvning oraliq bosqichlarining dastlabki jarayonida auditorlar tomonidan sub’ektiv hisob-kitoblarni bajarish orqali aniqlanadi.

Jahon auditorlik amaliyotida muhimlik darajasini aniqlash uchun foydalilanidigan ko‘rsatkichlar auditorning shaxsiy mulohazasi asosida tekshirilayotgan sub’ekt moliyaviy hisobotining eng muhim deb tanlangan ko‘rsatkichlari orasidan tanlab olinadi yoki ma’lum arifmetik amallarni bajarish orqali aniqlanadi hamda ushbu ko‘rsatkichlar tekshirilayotgan korxona faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlab olinadi. Muhimlik darajasi moliyaviy hisobot auditi mavjud riskini pasaytirishda asosiy omil sifatida foydalaniishi auditor fikri ishonchlilagini ta’minalaydi yoki tekshiruv jarayonida auditor xatolarini kamaytirish imkonini beradi. Bundan ko‘rinadiki auditor nafaqat moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari ishonchlilagini aniqlaydi, balki o‘z oliyaviy hisobot ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda o‘z fikrining ishonchlilagini ta’minalaydi.

Biz tadqiqot olib borayotgan davlat unitar korxonasida esa muhimlik darajasini aniqlashda bazaviy ko‘rsatkich sifatida soliq to‘lagunga qadar foyda ko‘rsatkichi yoki sof tushum hajmi ko‘rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiqli.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ҳамдамов Б.Қ. Ўзбекистон иқтисодиётининг ҳисоб ва ҳисобот тизимида аудиторлик назоратини ривожлантиришнинг услугубий асослари: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. Тошкент - 2007. -33 б.
2. Ҳасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби: назария ва услубиёт : Монография/. -Т: Молия , 2003. -248 б.;
3. Чая В.Т. Контроль качества аудита: проблемы и решения // все для бухгалтера. 2006. № 17. с. 31–33.
4. Щербакова Н.С., Попова Е.В. Налоговые риски, их сущность и оценка// Аудиторские ведомости, 2014, № 7.